



Germaniyaning Toshkentdagi elchixonasiga qabulga yozilish tizimi haqida eslatma

Viza olish maqsadida xujjat topshirish uchun qabulga yozilishingiz lozim. Qabulga yozilish bepul. Qabulga faqat Internet orqali elchixonaning

https://service2.diplo.de/rktermin/extern/choose_realmList.do?locationCode=tasc&request_locale=en

qabulga yozilish elektron tizimi yordamida yozilish mumkin. Siz qabulga o'zingiz oson va tez yozilishingiz mumkin. Buning uchun Sizga Internet zarur. Sizni shuningdek vakillik qiluvchi shaxs ham qabulga yozishi mumkin. Lekin shunga qaramay qabulga belgilangan vaqtda Germaniyaning Toshkentdagi elchixonasiga shaxsan kelishingiz kerak.

— Qabulga yozilish tizimi tufayli elchixona qabul jarayonini samarali tashlik etishni ta'minlashi, shuningdek qabulga yozilishni kutish uchun zarur vaqtni maksimal darajada qisqartirishi mumkin.

Qabulga yozilish tizimi Sizga o'zingizga qulay vaqtda qabulga yozilish hamda o'z vaqtida arizangizni topshirish imkonini beradi.

Mavsumga qarab arizachilar sonining ko'payishi sababli qabulga yozilish tizimida bo'sh qabul vaqtlari qolmasligi mumkin. Shu sababli arizachilar ancha oldin qabulga yozilishlari lozim. Tajribadan ma'lumki, apreldan avgust oyiga qadar va bayram kunlaridan oldin arizachilar soni ko'payishi kuzatilgan. Safaringizni o'z vaqtida boshlashingiz uchun viza olishga xujjatlarni o'z vaqtida topshirish tavsiya etiladi: viza olish uchun xujjatlar uzog'i bilan uch oy oldin topshirilishi mumkin.

Guruh tarkibida safarni amalga oshirmoqchi bo'lgan arizachilar uchun qabulga o'z vaqtida yozilish muhim ahamiyatga ega, chunki guruhlar uchun xujjat topshirishga ma'lum bir vaqt belgilanadi. 5 kishigacha bo'lgan guruhlar uchun qabul vaqti onlayn tarzda belgilanishi mumkin. 5 kishidan ziyod tarkibdagi guruhlar to'ldirilgan maxsus blankni elektron pochta orqali yuborib, qabulga yozilish uchun ariza berishlari kerak. Batafsil ma'lumotni 5 kishidan ziyod guruhlar uchun ariza berish haqidagi eslatmadan olishingiz mumkin. Eslatmaga shuningdek ariza blanki ham ilova qilingan.

Pochta manzili: Sharof Rashidov ko'chasi 15, 100017 Toshkent
tel.: (+998-71) 120 84 40 (qo'ngiroqlarni qabul qilish vaqtlari dushanbadan payshanbagacha mahalliy vaqt bilan soat 14.00 dan 16.00 gacha)
faks: (+998-71) 120 84 80
elektron pochta manzili: visa@tasc.diplo.de
internet: www.taschkent.diplo.de
vaqt farqi: Toshkent – Markaziy Evropa vaqti: + 4 soat (qishki vaqt) / 3 soat (yozgi vaqt)
(8 soat Markaziy Evropa vaqti: = 12/11 soat Toshkent)

Ushbu eslatmadagi barcha ma'lumotlar, ayniqsa kerakli hujjatlar ro'yxati elchixonaning ushbu eslatma yozilishiga qadar to'plagan ma'lumotlari va tajribasiga asoslangan. Biroq, elchixona ularning to'liqligi va to'g'riligi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.